



## JAZOIRLIK YOZUVCHI TOHIR VATTORNING "AL-LAZ" ROMANINING G'OYAVIY ESTETIK XUSUSIYATLARI

**Sabriddinova Shaxzoda**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti*

*70230104 – Adabiyotshunoslik (arab adabiyoti) 1-kurs magistranti*

*Ilmiy rahbar: f.f.d., dots., Muxiddinova D.*

*+998998553823*

*shakhzodasabriddinova@gmail.com*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada Jazoir zamonaviy arabiyzabon adabiyotining rivoji, arabiyzabon yozuvchi Tohir Vattorning ijodiy faoliyati yoritilgan. Maqolada "Al-Laz" romani yaratilish tarixi, roman mavzu ko'lam, obrazlar tizimi va yozuvchi mahorati tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *Jazoir arabiyzabon adabiyoti, romannavislik, arablashtirish siyosati, milliy-ozodlik kurashi, adabiy an'analar, obrazlar tizimi.*

**Аннотация.** *В данной статье рассказывается о развитии современной алжирской арабской литературы, творчестве арабского писателя Тахира Ваттора. В статье анализируется история создания романа «Аль-Лаз», тематика романа, система образов и мастерство писателя.*

**Ключевые слова:** *Алжирско-арабская литература, романистика, политика арабизации, национально-освободительная борьба, литературные традиции, система образов.*

**Annotation.** *This article describes the development of modern Algerian Arabic literature, the work of the Arabic writer Tahir Vattor. The article analyzes the history of the creation of the novel "Al-Laz", the theme of the novel, the system of images and the skill of the writer.*

**Key words:** *Algerian-Arabic literature, novelistics, Arabization policy, national liberation struggle, literary traditions, system of images.*

O'tgan asrning ikkinchi jahon urushi yillaridan keyingi davrda milliy adabiyotlarda milliy o'zlikni anglashning tez sur'atlar bilan o'sishi, Jazoir ziyolilari g'oyaviy dunyoqarashining sezilarli darajada kengayishi, estetik tasavvurining boyishi - bularning barchasi Jazoirning o'ziga xos adabiyoti, ayniqsa, Jazoir uchun, qolaversa, boshqa arab mamlakatlari uchun ham yangi bo'lgan roman janrining gurkirab taraqqiy etishiga olib keldi. Uzoq vaqt davom etgan tushkunlikdan so'ng XIX asrning oxirgi o'n yilliklaridan boshlab Jazoirning arabiyzabon adabiyoti tez sur'atlarda rivojlana boshladi.

Jazoir adabiyoti ikki tilli, ya'ni arab-fransuz tilidan tashkil topgan eng rivojlangan zamonaviy adabiyotdir. Arab tilli adabiyot o'rta asr musulmon davlati-xalifalikning eng birinchi asrlaridan boshlanadi. Fransuz tilli adabiyot XX asrda paydo bo'ldi, lekin bu adabiyot Jazoirni mustamlakachilikka qarshi kurashi davrida avj oldi (XX asr 50-60-yillar).

Jazoir hikoyanavisligining taraqqiyoti Tohir Vattor nomi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u arab tilidagi romannavislik rivojiga salmoqli hissa qo'shgan yozuvchilardan hisoblanadi. Adib 1936-yil 15-avgustda Jazoirning sharqidagi Sedrata nomli qishloqda dunyoga kelgan. Tohir Vattor o'sha davrdagi musulmon ulamolari ittifoqiga tegishli bo'lgan arabiyzabon davlat maktabida Qur'on ilmini o'rganadi. 17 yoshida Badis Institutiga o'qishga qabul qilinadi. Institutda bir yil davomida Islom huquqi bo'yicha tahsil oladi va keyinchalik Misrdagi jurnalistika va kinematografiya kurslariga qatnagan. 1954-yilda Jazoir revolyutsiyasi boshlangan yili Tunisdagi Zaytuna madrasasida o'qishni boshlaydi. U yerda mumtoz va zamonaviy arab adabiyotini ikki yil davomida o'rganadi va keyinchalik talabalar tomonidan uyushtirilgan ish tashlashda qatnashib madrasadagi tahsilini ham tark etadi. Oxir-oqibat, Vattor ijodini siyosat, inqilob va mafkura bilan bog'lab samarali ijod qiladi, ammo hech qanday diplomga ega bo'lmaydi.

Adabiyotga dastlab oddiy she'rlar bilan qadam qo'ygan adib keyinchalik bu sohadagi faoliyatini hikoya, teatr va romanga yo'naltiradi. 1956-yilda u bir muncha vaqt yozishni to'xtatdi va Milliy Ozodlik Fronti jamoat tashkilotida ishlash uchun Tunisga yo'l oladi. Bu yerda uning falsafaga qiziqishi va aloqalari mustahkamlandi. 1962-yilda u hukmron Milliy Ozodlik Fronti partiyasiga rahbarlik qilish uchun Jazoirga qaytib keladi va 1984-yilgacha bu lavozimni egalladi. Jazoirga qaytgach, Konstantinada arab tilida chop etiladigan birinchi haftalik "Ahror" gazetasiga asos soldi.

Tohir Vattor 1974-yilda o'zining "Al-Laz" nomli birinchi romanini nashr etdi. Asarda Jazoirning mustamlakachilarga qarshi kurashayotgan xalq orasida birdamlik yetishmayotgani aks ettirilgan bo'lib, kommunistik qahramonlar bilan boyitilgan. Xuddi shu yili mazkur asar Uilyam Granara tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan.

Tohir Vattorning "Al-Laz" romani o'zbek tilidagi Baxtiyor Ibrohimov va Muhammad Yusupovning tarjimalarida "Olovli so'qmoqlar" va rus tilidagi tarjimada esa "Tuz" kabi nomlar bilan mashxur bo'lib, Jazoir arabiyzabon adabiyotida romanchilikning rivojlanishida alohida ahamiyatga molik asardir. Ushbu asardagi voqealar rivoji 1954-yilda Jazoirda bo'lib o'tgan fransuzlarga qarshi ozodlik harakati tafsilotlariga bag'ishlangan bo'lib, adib ushbu voqealarni yagona kompozitsiya asosida roman shaklida yoritishni 1958-yillardan boshlab reja qila

boshlaydi. Keyinchalik Jazoir Birinchi Muvaqqat hukumati tuzilgandan so'ng 1965-yilning may oylaridan ushbu romanni yozishga jiddiy kirishadi. Milliy Ozodlik Partiyasi ichidagi ziddiyatlar ushbu romanning tugallanishini naqd yetti yilga uzaytirilishiga sabab bo'ladi. Ushbu roman ilk bora 1972-yilda Jazoirida, keyinchalik 1977- va 1981-yillarda Falastinda nashr etiladi. Yozuvchi 1956-1958-yillardagi ozodlik kurashida shaxsan o'zi mardlarcha qatnashganligi uchun voqealar rivojini tasvirlashga hech qanday ijodiy to'siqlarga duch kelmaydi. Tohir Vattorning "Tuz" romani fransuz zulmkorlariga qarshi Jazoir xalqi olib borgan milliy-ozodlik kurashi haqidagi tarixiy asar bo'lib, ushbu davrdagi qariyb barcha ijtimoiy tiplarning badiiy obrazlari o'z aksini topgan. Shu bilan birga har bir personaj, u qanday mavqe egallashi va qanday rol o'ynashidan qat'iy nazar avvaldan tayyorlab qo'yilgan ma'lum bir bo'yoq vositasida chizilmaydi, muayyan bir tizim doirasida harakat qilmaydi. U ko'z o'ngimizda butun murakkabligi bilan, barcha ziddiyatlari bilan hayotiy, insoniy xarakterga ega shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Tohir Vattor har bir obrazni dinamik tarzda - izchil rivojlanish va o'zgarishda, g'oyat murakkabligi, ba'zan o'ta shiddatli vaziyatlarda, asardagi boshqa ishtirokchilar bilan keskin to'qnashuvda tasvirlaydi. Yozuvchining yuksak badiiy mahorati ham eng avvalo ana shu qahramonlar xarakterini ochib berishda namoyon bo'ladi. Mustaqillik uchun kurash olib borgan Jazoir xalqining haqiqiy vatanparvarlari, fidoyilari bo'lgan partizanlarning jangovor safidagi qashshoq Hamu, partizan a'loqachilari Ahmazi, va Al-Farxiy ham, yoxud partizan otryadining ishonchli va jasur komandiri Zaydon ham xuddi bosh qahramon darajasida ko'rsatilgan. Hamma gap shundaki, ularning barchasi birlashib, umumlashgan Jazoir xalqining obrazi - asarning bosh qahramoni obrazi sifatida talqin etiladi. Asarda jamiyatning barcha tabaqalari va qatlamlari bir maslak, bir maqsad bilan milliy mustaqillik uchun kurash bayrog'i ostida jipslashgan butun bir xalqni ifoda qiladi. Bunga misol baqqol Qaddur va Nosir obrazlari. Vattor tasavvurida fransuz mustamlakachilarga qarshi kurashga bel bog'lagan, inqilob ishiga benihoya sadoqatli har bir jazoirlik bosh qahramondir. Uning fikricha, inson qahramon bo'lib tug'ilmaydi, balki u olovli kurash janglarida toblanib qahramonga aylana boradi. Bu g'oya katta badiiyat bilan Al-Laz obrazi orqali mohirona ilgari suriladi. Asarning nomi ham bejizga "Olovli so'qmoqlar" deb nomlanmagan, adib bu nomni tanlash orqali inson hayotini majoziy ma'noda yo'l ya'ni so'qmoqqa qiyos qilib, Al-Laz singari qahramonlarning hayoti esa murakkab sinovlar, ketma-ket urushlarga boyligi, uning uchun umr mazmuni ana shu olovli urushlarda ozodlikka erishish ya'ni yo'l so'ngidagi manzilga yetib borish ekanligini ochib berishga harakat qilgan. Shu bilan birga asar bosh qahramonning ismi "Al-Laz" nomi bilan ham mashxur. Eng quyi ijtimoiy qatlamlardan chiqqan, mustamlakachilarning davomiy zug'umlarini boshidan kechirgan, qashshoqlik va

ochlikka mahkum etilgan, barcha insoniy haq-huquqlari toptalgan mazlumlar vakili bo'lgan Al-Laz obrazi o'quvchi ko'z o'ngida asta-sekin qahramonlik pog'onasiga ko'tariladi. Adib talqinida xo'rlangan, tahqirlangan Al-Laz voqealarning tadrijiy davomida ma'naviy kamolotga erishadi. Bu obraz orqali adib milliy ozodlik kurashining jo'shqin kamoloti, inqilobiy g'oyalarning yuksak safarbarlik kuchi nechog'lik mo'jizalarga qodir ekanligini ko'rsatib beradi. Asardagi ayni shu ozodlik uchun kurash ruhi personajlar o'rtasidagi keskinliklar, asarning dialoglarga boyligi, badiiy nutqning yengilligi va ortiqcha tafsilotlarga berilishdan qochib, asosiy voqealarni kitobxonga qiziqarli tarzda yetkazib berish orqali aks ettirilgan.

Tohir Vattorning ushbu asari retrospektiv uslubda yoritilgan bo'lib, voqealar jadallashgani sari qahramonlar o'z o'y-xayollarida o'tmishga nazar tashlaydilar va shu orqali ancha yillar avvalgi voqealarni esga oladilar. Shu yo'sinda bir necha yillar avval ro'y bergan hodisalarning bayon etilishi fabulaning yaxlitligiga o'z ta'sirini o'tkazmaydi. Asarda voqealar rivojining ketma-ketligi tartibga solinmagan bo'lsa-da, kitobxon o'sha davr muhitini to'liq his qila oladi. Syujetning xronologik tizimini o'zgartirish orqali adib hodisalar mazmunini yanada aniqroq ochishga, o'quvchining diqqatini muhim voqealarga qaratishga intilgan. Ushbu asarni estetik xususiyatlari bilan ham, ijtimoiy-siyosiy mohiyati bilan ham hozirgi zamon arab prozasining eng yaxshi namunalari qatoriga qo'shish mumkin. Ushbu asar yolg'iz Jazoirda emas, balki boshqa davlatlarda ham kitobxonlarga manzur bo'lganligi fikrimizning dalilidir. Ushbu roman u yozilgunga qadar Jazoirda bo'lgan butun adabiy va siyosiy faoliyatning (ayniqsa, Jazoirni ozod etish milliy fronti partiyasi markaziy organlaridagi faoliyatning) yakuni o'laroq maydonga kelgan. Asardagi voqealarni yoritish uchun adibning roman janriga murojaat qilganligi, bir tomondan ijod sohasida yuksak malaka hosil qilganligi va badiiy jihatdan to'la mahoratga erishganligi bilan izohlansa, ikkinchi tarafdin voqealikni yanada kengroq, yanada hayotiyroq aks ettirish uchun izlanishlar olib borganligini ko'rsatadi. Romandagi asosiy qahramonlardan biri, partizanlar safida kurashgan Ar-Rubeyi obrazining ichki monogolidan quyidagi parcha o'sha davrdagi kambag'al insonning qadri qanchalik ekanligini yoritadi:

“Biz tug'ilib, esimizni tanibimizki, ahvol shu: bosh kiyimimizni chirk bog'lab sinishga kelsa ham yangisiga yetolmaymiz. Burnuslarimiz dalva-dalva yohud qirq yamoq bulib ketadi. Oyoq kiyimlarimizdan bir parcha charm yoki rezina qolguncha har yer-har yeridan sim bilan chandib olib, yuraveramiz. Qachon qarama yuzlarimiz burishgan, rangimiz zahil. Kechagi kunimizdan faqat oxu-faryod, alam qoldi. Bugunimiz esa kutish, umid va intizorlikdan iborat. Ertamiz - aniq, o'lim - xaq. Mikroblar singari o'zimizni o'zimiz quritamiz, lekin...” [1, 12]



Asarda badiiy tasviriy vositalar, dialoglar, ichki va tashqi monologlar, peyzaj va shu kabi badiiy bo'yoqlardan unumli foydalanilgan. Voqealar rivoji davomida Al-Laz Ramazon ismli partizan askarning yordami bilan fransuzlar qo'ldan qochishga muvaffaq bo'ladi. Al-Lazni qo'ldan chiqarib, yana uni ustiga eng sodiq askarlaridan ajragan ofitser alamzada o'zining qabih rejalarini amalga oshirishni boshlaydi. Ayni shu kabi keskin vaziyatlarda adib yangi obrazlarni hodisalar markaziga qo'yish orqali asardagi voqealarga kutilmagan tus beradi. Batush obrazi asli arab, ammo fransuz ofitseri qo'lida xizmat qiluvchi laganbardor va munofiq askar bo'lib, lavozimi ko'tarilishi uchun ofitserga mulozamat qilib yuradi. Ayni uning xizmat vaqtida Al-Lazning qochib ketishi esa uning barcha rejalarini barbod qiladi. Isyonkor Qaddurning onasi Xayziya Batushning holasi, Ar-Rubeyi esa holasining turmush o'rtog'i yani pochchasi ekanligini bilan ofitser mahalliy jazoirliklarni xo'rlash maqsasida pastkashlikka qo'l uradi. U Ar-Rubeyini uyiga bostirib borib, u yerga Al-Lazning onasi Maryanani ham olib keladi. Avval Batushga ularning uyidagi sigirni otib o'ldirishni buyuradi. Johil Batush pinagini ham buzmay to'pponchadan o'q uzadi. Keyin esa Al-Lazning onasi Maryanani otishga buyruq beradi. Va voqea so'nggida Batushning qondosh xolasi Xayziyani yechintirib, o'z turmush o'rtog'i va boshqa fransuz mustamlakachilarining ko'z o'ngida uni nomusiga tajovuz qilishga buyuradi. Avvaliga quloqlariga ishonmagan Batush bir necha soniya qimirlamay qotib qoladi. Ammo ofitserning buyrug'idan so'ng mana shu qabihlikka qo'l uradi. Ushbu sahnani Vattor shu qadar real va ochiq-oydin yoritganki, har qanday tirik jonga ta'sir qilmay qolmaydi. Bu voqeadan so'ng Batush serjant unvonidan ko'tariladi. Ammo o'z qilgan ishini unutilmay vasvasa bo'lib qoladi. U ofitserga qarshilik ko'rsatishi va bu darajada pastkashlikka bormasligi mumkin edi, ammo ayni shu kabi daqiqalarda uning naqadar qo'rqqoq, mansabparast va o'z manfaati yo'lida hech narsadan tap tortmaydigan shaxs ekanligi ayon bo'ladi. Bu kabi personajlar orqali Tohir Vattor jazoirliklarning mustamlakachilar qo'l ostida ezilayotganiga nafaqat fransuzlarning adolatsizligi, balki aynan arablarning o'zi aybdor ekanligini, o'z xalqiga va hatto o'z oilasiga ham xiyonat qilgan Batush kabi insonlar tufayli xalq ozodlik deb atalgan ne'matdan bebahra ekanligini ifodalamoqchi bo'lgan. Vasvasada qolgan Batush barchasida qondosh holasini ayblab o'zini ovutmoqchi bo'ladi va xolasini o'z uyida bolta bilan tiriklayin chopib o'ldiradi... Aynan shu sahna asarning kulminatsiya bo'lib, Tohir Vattor insonning naqadar vahshiylikka qo'l urishi mumkinligini, vatanparvarlik, milliy g'ururga ega bo'lmagan shaxsda oriyat ham, nomus ham bo'lmasligini ko'rsatib bergan.

Asarning yechim qismi aynan Batush orqali amalga oshadi. Muallif asarda hech narsadan qo'rqmaydigan, hayotdan umidi qolmagan inson holatini ya'ni Batush

obrazini kam soʻzda koʻp maʼno ifodalash orqali yoritgan. Shu payt u fransuzlar orasidagi inqilobchilar safiga qoʻshilib ketadi. Shu jarayonda Batush jasorat koʻrsatadi, qoʻrqmasdan minalarni harbiy lagerga uloqtirishni boshlab beradi. Shu tariqa Jazoirdagi ozodlik kurashi alanga oladi. Asar soʻngida esa Jazoirning milliy kurashdan keyingi holati tasvirlanadi. Afsuski oddiy xalqning ahvolidagi ijobiy oʻzgarish sezilarli emas. Ar-Rubeyning oʻgʻli Quddur kurashda xalok boʻlgan, Al-Laz oʻz otasi oʻlimidan soʻng telbanamo boʻlib qolgan, qochoqlar lagerida kun koʻradi, Hamu esa avvalgidek qashshoqlikdan aziyat chekadi, eng qiziqarlisi Batush urushdan soʻng Zaydonni oʻrnini egallab komandir boʻlib olgan. Keyinchalik esa shaharga ketib “Si” unvoniga ham ega boʻlgan. Qishloq ahli shunday qahramoni borligidan faxrlanishadi. Ammo haqiqiy olovli soʻqmoqlarning sinovlarida toblangan, milliy ozodlik kurashining haqiqiy qahramonlari esa nom-nishonsiz ketishgan. Asarning yakuni kitobxon uchun ochiq qoldirilgan. Yaʼni kelgusi voqealar yoritilmagan, bu esa Jazoir xalqi hali hamon nafaqat ozodlik kurashi yoʻlida davom etmoqda, balki maʼrifat va madaniyat, savodxonlik zinalaridan asta-sekin qadam bosmoqda...

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, Tohir Vattor ijodida arab adabiyoti merosining anʼanalarini davom ettirayotganligini kuzatish mumkin. Uning ijodida ezgulik va adolatning toʻla gʻalabasi milliy ozodlik harakatining amalga oshishi va inqilob davrida va inqilobdan soʻng aholi turmush tarzidagi islohotlar bilan oʻlchanadi. Tohir Vattorning falsafasidagi real hayotni ochiq tasvirlay olish, ozodlik uchun kurash, hech kimga boʻyin egmaslik, badiiyatni boʻrttirish achchiq haqiqatni keskin ifodalash kabi xususiyatlarning ildizini shu asarda uchratish mumkin. Tohir Vattor asarlarida oʻzlikni anglash, ozodlik uchun kurash muammosi qahramonlarda sarosimalik tuygʻusini uygʻotadi. “Tuz” romanida ham bosh qahramon taqdiridan qochib keta olmaydi. Shu davr kishilari barchasi davr hukmiga asir, nochor, bilimsiz, gʻayratsiz, becharahol va kambagʻal kishilardir. Fikrimcha, romanning bunday ruhiyatda yozilishiga yozuvchining yon-atrofdagi tabaqalashgan aholiga shu tuzumga rozi boʻlib, hech qanday oʻzgarishlar yaratishga qodir boʻlmagan kambagʻal yoki yolgʻiz kishilarning taqdiriga befarq emasligi, jamiyatdagi hukmron tabaqa vakillarining ochkoʻzligi, hukumatning ham oʻjizlar yonini olmasligi katta sabab boʻlgan. Vaqt va makonni taʼriflari kishida aniq tasavvur xosil qildiradi. Va bu asarni tushunishga, vaziyatga toʻlaqonli baho bera olishlikka yordam beradi. Romandagi voqea-hodisalar orqali shu davr Jazoir kishisining ijtimoiy-siyosiy ahvoli toʻliq anglab yetiladi.



ADABIYOTLAR:

1. At-Tohir V. Olovli so'qmoqlar. Ibrohimov B. va Yusupov M. tarjimasini. – T.: Raduga, 1986.
2. Прожогина С.В. Современная литература Алжира. – М.: Высшая школа, 1987.
3. Akbarova M.X. Yangi davr arab adabiyoti (XIX - XX asrlar). Darslik. – T.: ToshDSHI. 2006
4. <https://9lib.net/document/nq759mvz-et-tahir-vattar-in-toplumcu-gercekci-romanlarinda-muecadele>.
5. <https://ru.m.wikipedia.org>